

## O'QUVCHILAR NUTQIDAGI DIALEKTAL XATOLARNI BARTARAF QILISH BO'YICHA TAVSIYALAR

**Mavlonberdiyeva Nafisa Ozod qizi,**

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti,  
O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar nutqidagi dialektal xatolarning yuzaga kelish sabablari to'g'risida ma'lumot berildi. O'quvchilarning nutqida yuz beradigan dialektal xatolarga alohida to'xtalib, ularni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar keltirildi.*

*Kalit so'zlar: nutq, dialekt, sheva, adabiy til, dialektal xato, sinonimik qator, To'rtko'l-Beruniy*

Maktab o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqi rivojlanishi, ularning har tomonlama savodli, erkin fikr, o'z fikrini hayajonlanmasdan o'qituvchi va boshqa jamiyatdagi insonlarga erkin yetkazib beruvchi kadr bo'lib chiqishi uchun hozirgi o'zbek adabiy tilining ahamiyati katta. O'quvchi o'z hududidagi mahalliy sheva talaffuziga odatlanib qolmasligi uchun, avvalo, o'qituvchi dars jarayonini sof o'zbek adabiy tilida gapirib tushuntirishi kerak. Agar o'quvchi dars jarayonida shevadagi so'zning adabiy tildagi ma'nodoshini topa olmasa, o'qituvchi shevadagi so'zlarning sof o'zbek adabiy tildagi ma'nodoshlarini o'rgatib borishi hamda o'quvchining nutqida yuz beradigan dialektal xatolarning yuzaga kelishini oldini olish uchun ko'proq badiiy asarlar o'qitishi va asarni birgalikda adabiy tilda tahlil qilishi maqsadga muvofiq. Bu masalada nafaqat o'qituvchi emas, balki shu hududda yashovchi jamiyatning ham ta'siri sezilarli darajada ta'sir qiladi. Chunki o'quvchining maktabga bormasdan oq yon-atrofidagi insonlar, oilasi, mahallasida yashovchi insonlar bilan aloqasi ta'sirida bolaning og'zaki nutqida mahalliy shevalar shakllanadi va bolaning og'zaki nutqida sof o'zbek adabiy tili so'zlari emas, balki mahalliy shevalar uchraydi. Buning natijasida dialektal xatolar yuzaga keladi va bola maktabga borgach, dars jarayonida mahalliy sheva so'zlarining hozirgi o'zbek adabiy tildagi ma'nodoshlarini topolmay, dialektizm so'zlardan foydalanadi. O'quvchi nutqidagi bunday dialektal xatolarni bartaraf qilish uchun o'quvchi nutqidagi nuqsonlarni yo'qotish zarur. Buning uchun o'quvchi dars jarayonlarida o'zbek tili bo'limlari hisoblangan fonetika, orfografiya, orfoepiya va boshqa bo'limlarni o'rganishi kerak. Agar o'zbek tilining bo'limlari o'qituvchi

tomonidan o'quvchiga yetarli darajada yetkazib o'rgatilmagan bo'lsa, o'quvchining nutqida dialektal xatolar yuzaga keladi.

“Dialektal xatolar avvalo o'quvchining og'zaki nutqida paydo bo'ladi. Bolada atrofdagilar bilan aloqa qilishning boshlanishidanoq u oilasidagilar, mahallasidagilar bilan aloqa munosabat qila boshlaydi. Ana shunday obyektiv qonuniyatga ko'ra bolaning nutqida hali u maktabga kelmasdanoq mahalliy shevaning talaffuz normalari, leksik va morfologik xususiyatlari shakllanadi va ular o'quvchining og'zaki nutqida uzoq saqlanib qoladi. Buning asosida dialektal orfoepik va orfografik xatolar sodir bo'ladi. Ikkinchidan, o'quvchida grammatik, orfoepik malakalarning shakllanmaganligi ham dialektal xatolarni keltirib chiqaradi”<sup>1</sup>.

“Qoraqalpog'istondagi o'zbek maktablari o'quvchilari nutqidagi dialektal xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari” qo'llanmasida keltirilganidek, albatta, dialektal xatolar o'quvchining og'zaki nutqida paydo bo'ladi. Buning sababi shundaki, bolaning oilasida qanday gapirilsa, ya'ni shevada gapirilsa shevaga, sof o'zbek adabiy tilda gapirilsa o'zbek adabiy tilda gapirishga bola shunga moslashadi va shu tilda yoki shevada gapira boshlaydi. Bolaning shevada gapirishida faqatgina oila emas, balki mahallada yashovchilarning qanday gapirishlariga ham bog'liq. Chunki bola faqat oilasi bilan emas, mahalladagi boshqa insonlar bilan ham aloqa-munosabat qiladi. Buning natijasida bola maktabga qadam qo'ymasdan oldin uning nutqida mahalliy sheva talaffuz xususiyatlari shakllanib boradi va bola maktabga borgach uning nutqida adabiy tilga gapirishga moslasholmay shevada gapira boshlaydi.

“Bunday xatolarni bartaraf qilishning asosiy omillari sifatida maktab o'quv programmasida IY sinfda fonetikaga oid ayrim temalarni o'tishda unli va undosh tovushlarning orfoepik talaffuziga, ruscha-internatsional so'zlarda O unlisining urg'uli va urg'usiz holatiga qarab to'g'ri talaffuz qilinishiga alohida e'tibor berish lozimligi ta'kidlanadi”<sup>2</sup>. Maktab o'quvchilarining og'zaki nutqida yuz beradigan dialektal xatolardan biri o'zbek tili izohli lug'atiga chet tilidan o'zlashgan so'zlarning to'g'ri talaffuz qila olmasligidadir. So'zlarni to'g'ri talaffuz qila olmasa, uning yozilishi tarzini ham xato yozadi. Bunday xatolarni bartaraf qilish uchun o'qituvchi shunday so'zlarning talaffuzini o'quvchilarga o'rgatib, topshiriq sifatida shunday so'zlardan topib talaffuzini o'rganib kelishlarini va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlarini talab qilishi zarur.

---

<sup>1</sup> M.Bo'ronov. “Qoraqalpog'iston dagi o'zbek maktablari o'quvchilari nutqidagi dialektal xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari”, NUKUS “Qoraqalpog'iston” 1990, 19-bet.

<sup>2</sup> M.Bo'ronov. “Qoraqalpog'iston dagi o'zbek maktablari o'quvchilari nutqidagi dialektal xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari”, NUKUS “Qoraqalpog'iston” 1990, 20-bet

O'quvchilar nutqidagi dialektal xatolarni bartaraf qilishda N.Ahmedov tavsiyasini keltirib o'tamiz:

“1. Talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarning dialektal shakli bilan adabiy-orfoepik formasini qiyoslaydigan turli tematik yoki aralash lug'at-tablitsalar tuzish va ularni izohlab, o'quvchilardan bu so'zlarni to'g'ri aytishni talab qilish.

2. Tekstdan noto'g'ri talaffuz qilinadigan ayrim so'zlarni topib, aytilishiga ko'ra yozib, keyin xatolarni aniqlash.

3. Turli janrdagi tekstlardan ayrim parchalar yodlatib, adabiy talaffuz normalariga rioya qilgan holda aytirish.

4. Bir xil o'zakli so'zlarni tanlab yozib, ulardagi ayrim unli va undosh tovushlarning talaffuziga e'tibor berib, ostiga chizdirish.

5. Sheva talaffuzida farq qiladigan ayrim tovush va qo'shimchalarning adabiy-orfoepik qanday aytilishini nazarda tutgan holda radio va televidenie eshittirishlarini kuzatib, to'g'ri aytishga o'rgatish. Kollektiv ravishda kinoteatrlarga borish.

6. Diqqat jalb qilmasdan o'quvchining nutqini magnitafon lentasiga yozib olib, qayta qo'yish orqali xatolarni aniqlash.

7. Talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarning aytilishi bilan yozilishi o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadigan turli tablitsalar tuzdirish.

8. Aytilishda urg'uning qo'yilishiga qarab semantik farqlanadigan, grafik jihatdan esa o'xshash bo'lgan so'zlar gruppasini yozib, mustaqil urg'u qo'ydirib, talaffuz qildirish”<sup>3</sup>.

N.Ahmedovning birinchi tavsiyasiga ko'ra o'quvchining nutqida talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarning adabiy tildagi shakli bilan dialektal shaklini qiyoslagan holda jadval tuzib o'quvchiga shu so'zlarning ma'nosini izohlagan holda ularga yodlatib to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish. Masalan: tonna (adabiy tilda) – to'nna (dialektal shaklda), javob (adabiy tilda) – javop (dialektal shaklda), keldi (adabiy tilda) – galdi (dialektal shaklda). Ikkinchi tavsiyasida esa darslikda berilgan matndan dialektal shaklda yozilgan va noto'g'ri talaffuz qilinadigan so'zlarni topib, so'zlarning talaffuzini o'rgatgan holda adabiy tildagi va dialektal shakldagi talaffuzlarini aytilishiga ko'ra yozib, so'ngra uning xatolarini aniqlash. Masalan: 1. O'quvchilar o'z maxsat (maqsad)lari sari intilishmoqda. 2. Dars jarayonida birinchi guruh savollarga to'g'ri javob (javob) berdi. Uchinchi tavsiyada o'quvchilarga she'rlar va turli janrdagi matnlardan parchalar yodlatib, ularni sof o'zbek adabiy tilda to'g'ri talaffuz qilishiga o'rgatish. To'rtinchi tavsiyada esa tonna, gramm, kilogramm, otryad kabi so'zlarning unli va undosh so'zlarni matndan tanlab yozib, ularning

---

<sup>3</sup> M.Bo'ronov. “Qoraqalpog'iston dagi o'zbek maktablari o'quvchilari nutqidagi dialektal xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari”, NUKUS “Qoraqalpog'iston” 1990,29-bet

talaffuziga e'tibor berish. Beshinchi tavsiyada radio-televediniye va kinoteatrlardagi eshittirishlarni kuzatgan holda ulardagi sheva talaffuzida farq qiladigan ayrim tovush va qo'shimchalarning talaffuziga e'tibor berib, to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish. N.Ahmedovning tavsiyasini umumiy qilib aytganda talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarning talaffuzi va yozilishi o'rtasidagi farqni ko'rsatadigan tablitsa tuzish hamda talaffuzda urg'u bilan farqlanadigan va yozilishi jihatdan o'xshash bo'lgan so'zlarni alohida ajratib yozgan holda to'g'ri talaffuz qildirish.

Sof o'zbek adabiy tildagi so'zlarning sinonimlari bo'lgani kabi shevalarning ham o'zaro sinonimlik xususiyati mavjud. Masalan, " Sodda so'zli sinonimik guruhga *katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan, gigant; quvvatli, baquvvat; batafsil, mufassal, to'la, to'liq, to'lig'icha* kabi ma'nodoshlar kiritiladi. Murakkab shaklli sinonimlarga qo'shma, tub va yasama, juft holda ishlatiladigan so'zlardan tashkil topgan sinonimik qatorlar kiritiladi: *dovyurak, botir, qo'rqmas; shod, xursand, xushnud; el-yurt, baxt-saodat, sog'-salomat* kabi so'zlar. Birikmali sinonimlarga *yordam bermoq, yordam ko'rsatmoq, yordamlashmoq; ishtirok etmoq, qatnashmoq* kabi birikma va so'zlar, *boshini ikki qilmoq, uylantirmoq* kabi evfimistik so'z yoki so'zlar birikmasi, *tishini qayramoq, o'chakishmoq* kabi so'z va iboralardan tashkil topgan sinonimik qatorlar kiritiladi"<sup>4</sup>. Bunday sinonimik qatorlar faqatgina adabiy tilda emas, balki shevalarda ham mavjud. Ma'lum bir hududning shevasi bilan boshqa bir hududning shevasiga sinonim bo'lishi mumkin. Masalan; " O'zbek adabiy tili va uning boshqa shevalaridagi kabi To'rtko'l-Beruniy shevalarida ham *pikir, xayal, o'y; Adam, kishi, insan; qumirsqa, qarinja; secha, chimchiq; keli, soqi; vaj, narsa,* (o'zbek adabiy tilda fikr, xayol, o'y; odam, inson, chumoli, chumchuq, buyum) kabi sinonimik qatordagi komponentlar-so'zlar o'zakdangina iborat bo'lgan sodda sinonimlardir. Misol uchun: 1. Qarinjadiyin janing bo, namuncha chiranasan?(Sho'roxon) 2. Sechadan qo'rqqan dari akmiydi daganla, o'g'lim(Saribiy)"<sup>5</sup>. Birinchi misoldagi gapda "qarinja" so'zi sof o'zbek adabiy tilda "chumoli", ikkinchi misoldagi gapda qo'llanilgan "secha" so'zi esa sof o'zbek adabiy tilda "chumchuq" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Dars jarayonlarida o'quvchilarning nutqidagi bunday dialektal xatolarni bartaraf qilish uchun turli xil mashqlarni bajartirish, talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarning talaffuzini o'rgatishda turli xil topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

<sup>4</sup> R.A.Rayimov, "Janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida ma'nodosh so'zlar", Tilshunoslik fanlari magistri darajasini olish uchun dissertatsiya, NUKUS-2007, 35-bet

<sup>5</sup> R.A.Rayimov, "Janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida ma'nodosh so'zlar", Tilshunoslik fanlari magistri darajasini olish uchun dissertatsiya, NUKUS-2007, 36-bet

“Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda didaktik o‘yinlar, turli xil musobaqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuni mustahkamlashga oid quyidagicha qatorlararo musobaqa uyishtirish mumkin:

1-qator: K harfi bilan boshlanadigan so‘zlarni ayting.

2-qator: O‘rtasida K harfi qatnashgan so‘zlarni ayting;

3-qator: Oxirida K harfi ishtirok etgan so‘zlarni ayting.

Qaysi qatorda takroriy so‘zlar bo‘lmasa, shu qator g‘olib sanaladi va o‘quvchilarning har biriga rasmi kartochkalar beriladi. Rasmdagi predmetning belgilarini bildiruvchi so‘zlar toptirilib, ular ishtirokida ikkitadan gap tuzdiriladi.”<sup>6</sup> Bunday rasm ishtirokida gaplar tuzdirish o‘quvchining fikrlashi, dunyoqarashi va nutqi ravon bo‘lishiga yordam beradi. Dars jarayonida o‘tkaziladigan turli xil o‘yinlar davomida o‘quvchi mahalliy shevada emas, balki adabiy tilda gapirishni ham o‘rganib boradi.

“So‘z ustida ishlash jarayonida quyidagicha og‘zaki mashqlardan foydalanish ham mumkin:

1. “Bir xil qo‘shimchali so‘zlardan topish: ishla, tuzla, sozla; gulzor, mevazor, tutzor kabi.

2. Ohangdosh so‘zlar topish: bosh, tosh, qosh, osh; tutun, butun, kukun;

3. Ma‘nodosh so‘zlar topish: Bunda darslikdagi matndan ma‘nodoshi bor so‘z tanlab olinadi va “Bu so‘zni boshqa qaysi so‘z bilan almashtirish mumkin?” deb so‘raladi. Masalan; vatan, yurt, el, mamlakat, diyor va boshqalar”<sup>7</sup>.

O‘quvchilar nutqidagi dialektal xatolarni bartaraf qilishda ham quyidagicha topshiriqlar berish maqsadga muvofiq:

1. Talaffuzi bo‘yicha yozilgan so‘zlarni imlo qoidalariga muvofiq yozing: asap, daklat, grip, gram

2. To‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozuvbo‘yicha so‘zlarni guruhlariga ajrating: to‘g‘ri talaffuz: asap, to‘nna, kilogram, javop; to‘g‘ri yozuv: asab, tonna, kilogramm, javob kabi.

3. Darslikda berilgan matndagi shevaga oid so‘zlarni toping va adabiy tildagi muqobilini topib almashtiring.

O‘quvchi dars jarayonlarida mana shunday mashqlarni bajarar ekan, uning fikrlashi kengayib, nutqidagi dialektal xatolar asta-sekin yo‘qola boradi. O‘quvchining darsda hayajon bosishiyo‘qolib, so‘zlaganda ravon va tushunarli nutq so‘zlashi, nutqida sof o‘zbek adabiy tilda gapirishi hamda sheva so‘zlarni qo‘shib gapirmaslik

<sup>6</sup> K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldasheva, Sh.Sariyev, “Ona tili o‘qitish metodikasi”, Toshkent “NOSIR” nashriyoti 2009, 49-bet

<sup>7</sup> K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldasheva, Sh.Sariyev, “Ona tili o‘qitish metodikasi”, Toshkent “NOSIR” nashriyoti 2009, 53-bet

xususiyatlari rivojlanadi. Bundan tashqari qayerda qanday nutq soʻzlash kerakligi toʻgʻrisida tushuncha paydo boʻladi va sof oʻzbek adabiy tilda gapirishga harakat qiladi. Oʻquvchilar bilan guruh boʻlib ishlashish jarayonida oʻquvchilarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayib, tafakkuri oʻsib hayajonlanmasdan ravon adabiy tilda nutq soʻzlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamov, U. B. (2022). XIV ASRGA QADAR TURKIY ADABIYOTDA KICHIK NASRIY JANRLAR. Академические исследования в современной науке, 1(19), 213-218.
2. Matkarimovich, I. Y., & Yuldashevna, I. U. (2022). Description of clothes vocabulary in Uzbek dialects of karakalpakstan. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 85-87.
3. Ibrahim, S., & Aydin, S. (2021). In alisher navoi's friend" hayratul-abror" songing of ethical issues. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(01), 23-25.
4. Хамдамов, У. Р. (2022, October). УЛЬТРАЗВУКОВОЙ МОНИТОРИНГ ЭФФЕКТИВНОСТИ АНТИКОАГУЛЯНТНОЙ ТЕРАПИИ В ЛЕЧЕНИИ ТРОМБОЗОВ ГЛУБОКИХ ВЕН. In PROBLEMS OF MODERN SURGERY, INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE WITH THE PARTICIPATION OF FOREIGN SCIENTISTS MATERIALS. Андижанский государственный медицинский институт.
5. Matkarimovich, I. Y., & Yuldashevna, I. U. (2022). Description of clothes vocabulary in Uzbek dialects of karakalpakstan. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 85-87.
6. ASADOV, M., & JAMOLOVA, S. (2022, February). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF LOVE IN THE POETRY OF ALISHER NAVOI. In Conference Zone (pp. 331-333).